



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ingliz tili fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish ishlarini takomillashtirish to‘g‘risida**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun Britaniya Kengashi va Buyuk Britaniyadagi Norvich til ta limi instituti (NILE) bilan birgalikda “School Champions” loyihasi doirasida ingliz tili fani o qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvini yaratish va tajriba-sinov tariqasida joriy qilish maqsadida **buyuraman:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ingliz tili fani o‘qituvchilari uchun “School Champions” loyihasi doirasida uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvi tajriba-sinov tariqasida 2023-yil oktabr oyidan 2024-yil fevral oyi yakuniga qadar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilsin.

2. Quyidagilar:

“School Champions” loyihasi doirasida uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvini joriy etish jarayonlariga jalb etilgan yuqori malakali ingliz tili fani o‘qituvchilari va loyiha doirasida uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvi joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

“School Champions” loyihasi doirasida uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvi joriy etish bo‘yicha tartib 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova)ga:

“School Champions” loyihasi doirasida Britaniya Kengashi va Buyuk Britaniyadagi Norvich til ta limi instituti bilan hamkorlikda belgilangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvini yuqori saviyada tashkil etilishini ta’minlash;

tajriba-sinov tariqasida tashkil etiladigan “School Champions” loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlarni muvofiqlashtirish va yakunlari bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga ma’lumot kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

1-ilovada belgilangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “School Champions” loyihasi doirasida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

“School Champions” loyihasi doirasida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning monitoringini olib borish va ma’lumotlarni vazirlikka kiritish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Axborot xizmati (D.Sobirova) “School Champions” loyihasi doirasida ingliz tili fani o‘qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishning yangi yondashuvi joriy etilayotganligini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

6. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning markaziy apparati tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil “13”-oktabr,  
472-son